

**RISHTON KULOLCHILIGNING RIVOJLANISHI VA O'ZBEK AMALIY
SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI****Toxirova Xulkar Tolibovna***Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani 15-son**Bolalar musiqa va san'at maktabi tasviriy san'at tarixi o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada Rishton kulolchilik markazining rivojlanishi, kulolchilikda ishlatiladigan betakror naqshlarining badiiy tahlili va uning ma'naviy asoslari, milliy qadriyatlarimiz borasidagi o'rni, tarixiy ahamiyati hamda o'zbek amaliy san'atida tutgan o'rni haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *kulol, charx, ko'zagar, loy, gil, sir, qo'rg'oshin, zoomorf, naqsh.*

Rishton kulolchilik san'ati qadimgi davrlarda paydo bo'lgan. Ko'plab afsonalar bilan bog'langan bo'lib, uning kelib chiqish tarixi mutaxassislar tomonidan hali kashf etilmagan. Hunarmandlar orasida hanuzgacha hukmronlik qilayotgan rivoyatlarga ko'ra qadimiy hunarmandlar shahri zamonaviy Rishtonning qadimgi hududlaridan biri - Sohibi Xidoya mozoridan uncha uzoq bo'lmagan Chinnigaron mahallasida joylashgan. Ba'zi rivoyatlar uning paydo bo'lishini X - XII asr boshlari, boshqalari - XIV - XV asr boshlari bilan bog'laydi, ammo ikkalasida ham Samarqand va Buxorodan kelgan hunarmandchilikning asoschilari hisoblanadi.

Bora-bora Rishton Farg'ona vodiysidagi kulolchilik markaziga aylandi. Bu xom-ashyoning qo'lda, aniqrog'i oyoqlarda ishlov berilishi bilan bog'liqdir. Moviy va kobalt rang (Kimyoviy element, qattiq, kumushrang-oq metall, qizg'ish porlaydi) dan tashqari barcha gil va bo'yoqlar Rishton hunarmandlari tomonidan yaqin atrofda qazib olinadi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog'lardan har xil buyoqlar, kvarslil qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan. Sayqallash uchun ishlatiladigan ishqorni tayyorlash uchun giyohlar(o'simliklar) asosan shahar atrofidan terilgan; bu natriy, kaliy, magniy oksidlariga boy bo'lgan ularning kulidir, ular Rishton keramikasiga hayratlanarli darajada chuqur va suvli zumrad-firuz rangini beradi.(1.38-40b)

Farg'ona va Xorazm kulolchilik maktablari asosan sovuq ranglar ko'k-oq-moviy ranglardan foydalanishgan. Rang va texnikaviy uslublarni bunday yaqinligi - ishqorli sir ko'k-moviy ranglarni sir osti naqshlarda foydalanilgan. Qolgan boshqa xususiyatlari - idishlarning shaklida, naqshlarning ishlatish uslublarida, ushbu ikkala kulolchilik maktablarining oralarida farq bo'lgan. Faqat Xorazmda o'zgacha yirik kosalar uchratish mumkin - badiya yoni bo'ylab vertikal ko'tarilgan. Odatda ichki qismi bezaklar bilan bezatilgan, Xorazm kulollari simmetriyali, geometriyali bezaklardan, sekinlik bilan o'simliksimon naqshlar bilan oralari uyg'unlashtirilgan, ushbu uslubi bilan Xorazm kulolchiligida alohida ornamentlarida dinamika o'zida mujassamlashtirgan. Farg'ona kulolchilik maktabining ornamentlari ingichka va nozik, Xorazm maktabi ustalaridan farq qiladi.

Farg'ona kulolchilik maktabi shakli jihatdan har xil va badiiy elementlarga boy. Ushbu katta va o'rtacha shakildagi idishlar, yirik kosalar, o'rtacha ko'zalar, har xil shakildagi suv idishlari. sut saqlash uchun mo'ljallangan, cho'mich, qo'l chayish uchun mo'ljallangan va b.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi Farg'ona va Xorazm maktablaridan farqi shundaki ranglardagi koloriti issiq rang sariq-jigarranglarda ishlatishi bilan farq qilgan, naqshlarini ishlashdagi uslubi mahsus kistlar bo'lib (G'ijvuvon, Shaxrisabz), Gravirovovli (tirnab ishlash) uslubi bilan (Denov, Urgut) asosan foydalanilgan. Yana ajralib turuvchi farqlari texnologiyaning bog'liqligi bilan - qo'rg'oshinli sirning foydalanishi bilan, yashil-sariq va jigarrang bo'yoqlar. Barcha markazdagi Buxoro-Samarqand maktablari kulolchilik idishlaridagi badiiy bezaklarida asosan o'simliksimon va geometrik ornamentlar keng tarqalgan. Katta bo'lmagan rozetka va tangalarda abstrakt-geometrikli motivlar uchragan. Bazida zoomorfli tasvirlar ham ishlatilgan.(2.57.6)

O'zbekiston hududida IX-XIII asrlarda ochiq ko'rinishdagi kulolchilik buyumlar ichiga va chetlariga chiziqlar chizilgan. Yopiq idishlarga aksincha tepasiga chiziqlar chizilgan. Bu ikki hil shakildagi idishlarga naqshlar tushirilgan. Yopiq idishlar ko'pincha shar shaklida yasalgan. Bo'yin qismi biroz qalinroq, ba'zilariga ushlagichlar ham qo'yilar edi. Idishlarning tashqi ko'rinishini naqshlar bilan bezatilardi. Chiroqlarning hajmi uncha katta bo'lmagan, ushlagichlari har-xilligi bilan ajralib turardi. Ba'zi idishlar banka ko'rinishida, ularga asosan epigrafik naqshlar tushirilgan.

Kulolchilik san'atini asosiy farqi unda ishlatiladigan angob va sir (glazur) larida. Birinchi bosqichda ishqorli sirlar, keyinchalik qo'rg'oshin va qalay oksidli. Bu ikki tarkibdan birinchisi shaffof emasdi va undan bezak va fon o'rnida foydalanilar edi. Ko'plab kulol ustalar kulolchilik san'atida qo'rg'oshinli sirni ishlata boshlashdi, bu idishlar yuzasida alohida jilo berardi. Qo'rg'oshinli sir o'zida, sir ostida ishlatiladigan rang va naqshlarni o'zgarishsiz saqlab qolar edi. Sirlangan kulolchilikda to'q jigarrang, qizil, yashil fondagi idishlar yana qizil fonli qora oq naqshli, qora foni qizil oq naqshli idishlar katta etiborga tushdi. Badiiy kulolchilikda naqshning mutanosibligi aniq ko'rinishda namayon bo'lardi. Hech qaysi bir naqshlar o'zining mutanosiblik hajmini yo'qotmaydi. Hajm ko'rinishida naqsh mutanosibligi shuni ko'rsatadiki fonga uzilmagan holda yahlitlik bilan yotadi. Rishton O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashxur va qadimiy markazlardan biri.(3.27b) XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Farg'ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta'siri ostida bo'lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo'la oladi. Qizg'ish-sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 1-1,5 metr chuqurlikda qatlam bo'lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatligi maxalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan holda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Ehtimol, mahalliy qizil rangdagi loydan qilingan ishlar - "hoki surx" - sopol idishlar ishlab chiqarish uchun idealdir.

Ilmiy tadqiqotlar bir ovozdan Rishtonning XIX asr - XX asr boshlarida keramika san'atidagi asosiy rolini e'tirof etadi. U yerdagi maktablar barcha kulolchilik markazlariga ta'sir ko'rsatgan va Farg'ona viloyatida "kulolchilik san'ati beshigi" hisoblanadi. Sirlil sirlarni va cho'tkada rasm chizish iste'dodini mukammal egallagan ko'plab Rishton kulollarining nomlari tadqiqotchilar tomonidan saqlanib qolgan va qayd etilgan.

Zamonaviy hunarmandlar qadimiy hunarmandchilik an'analariga tayanib, ayni paytda o'zlarining yangi g'oyalari bilan hissa qo'shmoqda. Ayni paytda deyarli Rishtondagi har bir uyda loy parchasini nafis shakllarga aylantirish mo'jizalari sodir bo'lgan ustaxonalar mavjud.

Rishtonda ustalarning ishtiyoqi tufayli yetakchi kulollarning ijodkorligini targ'ib qilish sezilarli darajada kuchaygan hamda mashhur markazning bir qator muzeylari va xalq ustalarining ijodiy studiyalari yaratilgan. Ular orasida taniqli keramika ustasi Ibrohim Komilovning uy-muzeyi, Rustam Usmonov tomonidan yaratilgan uy-galereyasi va Alisher Nazirovning ijodiy ustaxonasi bor. Bularning barchasi, shubhasiz, Rishton kulolchiligini rivojlantirishdagi ijodiy va tashkiliy muammolarga qaramay, Markaziy Osiyodagi ushbu yirik an'anaviy kulolchilik markazi to'g'ri yo'nalishda rivojlanayotgani odamni ruhlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алиева С.Ш. Гончарное ремесло Гиждувана // SAN'AT .- Т.: 2000. - №3.- С.38-40.
2. Алиева С.Ш. IX–XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадий хусусиятлари. Санъатшунослик фанлари бўйича фан доктори (DSc) автореферати. ЎзФА Санъатшунослик институти, - Т.: 2018. - 576
3. Хакимов А. Голубая керамика Ферганы. Риштанский мастер Шарафиддин Юсупов. Изобразительное искусство стран СНГ: история и современность. Исследования, факты, комментарии. Изд-во «Галарт». - М.: 2015.